

## O'ZBEKISTONDA MENEJMENT SOHASINING RIVOJLANISHIDA CHET EL TAJRIBASI: AMERIKA QO'SHMA SHTATLARI

Maraimova Kamola Shuhratovna<sup>1</sup>

<sup>1</sup>Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti katta o'qituvchisi

Sanoqulov Asilbek Elbek o'gli<sup>2</sup>

<sup>2</sup>Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, xalqaro iqtisodiyot  
va menejment fakulteti 2-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7155613>

Annotatsiya. Ushbu maqola fan taraqqiyotida nisbatan yangi soha hisoblanmish menejment doirasidagi islohotlar va ularning amaliyotga tatbiqlarini ilmiy tahlil etishga qaratilgan. Shuningdek, maqola o'z ichiga menejment sohasining qisqacha tarixi, o'tgan davr mobaynida bu sohada amalga oshirilgan tajribalar va ularning natijalari hamda shu davrda paydo bo'lgan yangi terminlarni oladi.

Kalit so'zlar: teylorizm, biznes modellari, resessiya, konveyer usuli, ekspluatatsiya, kapital, inson omili, riskni boshqarish, manufaktura

Menejment sohasi hozirda dunyoning: AQSh, Germaniya, Kanada, Shveytsariya kabi yatakchi mamlakatlarida iqtisodning muhim poydevorlaridan biri hisoblanadi. Yuqorida qayd etilgan davlatlar azal-azaldan barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlab beruvchi: mehmonxona biznesi, xizmat ko'rsatish sohasi, restoran (oziq-ovqat kulinariyasi) va manufakturada menejer va supervayzerlarning o'rne nechog'lik ahamiyatli ekanini his qilgan holda ushbu sohaga imkoni boricha kattaroq urg'u berib kelishmoqda. Dunyoga mashhur Wall Street jurnalining "the pied piper of private enterprise" ta'rifiga sazovor bo'lgan biznes va menejment fanlari professori xususiy sektorni fanga kiritgan amerikalik olim Maykl Meskonning fikricha: "Menejment bu - kompaniyani boshqarishning tashkiliy qismlarini va ratsional metodlar to'plamini o'zida birlashtiruvchi soha va uning funksiyasi ijtimoiy mehnat jarayonini ekspluatatsiya mexanizmi orqali jonlantirishdan iboratdir". Menejment inson iqtisodiy hayotining muhim jihati bo'lib, ma'lum maqsad va umumiy qarashlar ostida birlashgan guruh faoliyatini ifodalaydi. Markaziy boshqaruvchi va nazorat qiluvchi agentlik biznes uchun ajralmas bo'lak hisoblanadi. Ishlab chiqarish resurslari - moddiy, mehnat, kapital va boshqalar menejning salohiyatiga hamda tashkilotchilik qobiliyatiga ishonib topshiriladi. Qobiliyatli menejerlar va samarali boshqaruvsiz biznes uchun ajratilgan moddiy-texnik baza va ishlab chiqarish resurslari faqat resurslar bo'lib qoladi va hech qachon iste'molga to'la yaroqli mahsulotga aylanmaydi. Menejment zamonaviy dunyoda shunday muhim o'rin tutadiki, odamlarning farovonligi odamlar va mamlakat taqdiri juda katta ta'sir qiladi. Shunga asoslanib menejmentga quyidagi ta'rifni keltirish mumkin: belgilangan maqsadlarga erishish uchun jismoniy, aqliy va moliyaviy

resurslarni safarbar qilish va ulardan optimal foydalanishni rejalashtirish orqali biznes operatsiyalarini amalga oshirish jarayoni. Menejment tarixiga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu sohaning fan sifatida ajralib chiqishiga XIX asr oxirlarida AQShda texnologiya va sanoatning jadal rivojlanishi sabab bo'ldi. O'sha vaqtda AQSh da yalpi ishlab chiqarishga keskin o'tish maqsadida barpo etilgan yirik korporatsiyalar va fabrikalarda ish jarayonining ravonligini nazorat qiluvchi menejerlarga katta ehtiyoj tug'ildi. Va natijada, ushbu sohani tadqiq etuvchi bir necha klassik maktablar yaratildi. Amerikalik tajribali injener, keyinchalik nomdor olim Frederik Uinslov Teylor ilmiy menejment maktabiga asos soldi va ratsional menejmentning rivojiga ham o'z hissasini qo'shdi. O'z navbatida bu sohadagi davomli izlanishlar va chuqur tahlillar natijasida administrativ, xulq-atvor, matematik kabi yana bir qancha maktablarga asos solindi. Ilm-fanda, xususan, menejment sohasida Frank va Lilian Gilbert, Genri Ford, Duglas McGregor kabi olimlar o'z tadqiqot va izlanishlari orqali o'chmas iz qoldirdilar. Bular safiga xulq-atvor menejment maktabiga asos solish bilan o'zining unutilmas hissasini qo'shgan olim Elton Mayoni ham qo'shish joizdir 1927-1936 Chikago yaqinidagi Western Electrics bo'limiga qarashli Hathworne zavodida, GE (General Electics) homiyligida olib borgan tadqiqotlari orqali E.Mayo inson omili ya'ni ishchilarning mehnat unumdorligiga tashqi muhit va yaratilgan shart-sharoitlar qay tarzda ta'sir o'tkazishini tadqiq qildi. Uning maktabi shu jihati bilan ham ustun ediki, unda inson omili birinchi o'ringa qo'yiladi. Hozirda, nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda kadrlar yetishmovchiligiga uchrayotgan sohalar: tibbiyot, ta'lim, ijtimoiy soha, moliya, sug'urta, qolaversa, logistika va ko'chmas mulk tijorati singari yo'nalishlarda malakali kadrlar kamligi muammosi bilan ushbu yondashuv metodlari orqaligina maksimal samarali kurash olib borishimiz mumkin.

Menejmentda muvaffaqiyatli hisobga olinishi va ishchilar bilan munosabatda e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan yana bir jihat, samarali yetakchilikning asosiy qismi - bu muloqotdir. Bu, ayniqsa, tashkilot qiyin davrlarni boshdan kechirayotgan paytda qo'l keladi. Ma'lumotni ochiq va samimiy almashish orqali rahbarlar o'z xodimlarining ishonchini saqlab qolishga va ichki egoni pasaytirishga erishishlari mumkin. Agar biznes qaltis vaziyatga tushib qolsa va yoki uzluksiz resessiya tahdidi davom etayotgan iqtisodiyotda qanday qilib menejment metodlarini tatbiq qilish mumkin? Moddiy baza, kapital yoki ixtiyordagi daromad kam bo'lganda boshqaruv mexanizmiga qanday tuzatishlar kiritishingiz kerak? [2]

[2] Korn Ferry International qidiruv firmasi vitse-prezidenti va asosiy boshqaruvchisi bu holatda ishchilar burchlari ustidan eng yuqori nazorat

darajasi o'tkazishni taklif qiladi. Uning fikricha, ekstremal holatlar normal sharoitdagi har bir detalni shubha ostiga qo'yishni taqozo etadi. "Siz urush paytida mamlakatni va uning armiyasini tinchlik davridagi generalga ishonishingiz mumkin emas", deb eslatadi u boshqa rahbarlarga. Bosh direktor yoki asosiy yetakchi kutilayotgan risklar va ro'y berishi mumkin bo'lgan risklarning eng yomoniga tayyorlangan holatdagina uning kompaniyasi o'z bozor ulushini raqiblaridan tortib olishi mumkin. Raqobatchilaringizning eng yaxshi odamlarini ishga oling va ularni siznikini tortib olishdan saqlaning.

Opus Co ltd. asoschisi, Trening va ReallyEasyHR maslahatchisi Jek Xeyhou, qo'shimcha qiladiki, rahbarlar ularning xodimlari nima uchun o'zgarishlar qilish kerak ekanliklarini bilishlariga ishonch hosil qilish uchun kerak. Xususan, Xeyxau buni ta'kidlaydi: "Menejerlar eski biznes modellari endi ishlamayotganligi shu sabab qisqartirishlarga yo'l qo'yilishini va har bir inson o'zgaruvchan biznesga moslashishi kerakligin tushuntirib bera olishlari zarur. Shuningdek Xeyhou: "Menejerlar qo'l ostidagilarga agar o'z ish o'rinlarining daxlsizligini xohlasalar biznes ulardan butunlay voz kechib yuborishga qurbi yetmaydigan darajada qadrli kapitalga aylanish yo'llarini izlashlari kerakligini aytishini ham zaruriy muloqot shartlari sirasiga kiritadi. Xo'sh xodimlarning o'zlarining yangi qirralarini ish jarayonlariga moslashtirishga qanday ko'ndirish mumkin? Bunday muhitni qanday yaratasiz? Javob tariqasida "Iste'dodni vazifa bilan moslashtirishdan boshlang"-, deydi u.- "Xodimlaringizning kuchli tomonlarini ishga soling."

Zero, ilmiy menejment maktabining strategiyalari aynan ishchi xodimlarni faqat o'zlari eng yaxshi uddalaydigan vazifalarga tayinlashdan iboratdir. Amerika Qo'shma Shtatlarida manufaktura va boshqaruvchilar mahorati haqida so'z borar ekan, birinchi galda ko'z o'ngimizda bir daho gavdalanadi, va bu shubhasiz Genri Forddir. U barpo etgan Ford motors. kompaniyasida yo'lga qo'yilgan konveyer yo'lagi va bo'sh vaqt uchun to'lov kabi mexanizmlar qanday qilib mehnat unumdorligini eng optimal ko'rinishga olib kelish mumkinligini amalda isbotlab berdi. Aniq faktlarga to'xtaladigan bo'lsak, birgina Model T avtomashinasini yig'ish jarayonida konveyer tizimini joriy qilish orqali ishlab chiqarish muddatini 16 soatdan 1 soat-u 33 daqiqaga tushurishga muvaffaq bo'ldi. Qo'shmchasiga, o'z mexaniklariga konveyerda yuzaga kelgan muammolarni hal etish uchun sarflangan paytdan boshlab, to obyekt yaroqli holda qayta topshirilmaguncha haq to'lashni to'xtatish orqali ularda berilgan vazifani imkoni boricha yuqoriroq sifatni kafolatlagan holda, shu bilan birga minimal vaqt sarfi evaziga bajarishni talab qiluvchi o'ziga xos ichki motiv yarata oldi.

Hozirgi vaqtda menejmentni professionallashtirish tendentsiyasi o'sib bormoqda. Professionallashtirish boshqaruvga ma'lum ijtimoiy mas'uliyat va qadr-qimmat yuklaydi. Professional bo'lishi mumkin emas mijoz tomonidan boshqariladi yoki boshqariladi. U foydalanadigan professional bilim va mulohazaga ega o'z qarorini qabul qilish uchun. Shunday qilib, professionallashtirish biznesni yanada samarali, dinamik va unumdorroq qiladi. So'nggi yillarda, mulkni boshqaruvdan ajratgan korxonalar shakli va biznesni tashkil etishning kompaniya shaklining ommalashib borishi professional menejerlarga bo'lgan ehtiyojni oshirdi. Bunga tezkor va pozitiv munosabat bildirgan ilk davlatlardan biri, shubhasiz, Hindistondir. Biznes sohasida professionallikka intilish Hindistonda menejment ta'limining o'sishiga hissa qo'shdi. Va hozirda hind menejer xodimalari qurilish, IT, tibbiyot kabi sohalarda eng qadrlanadigan kadrlarga aylanib borishmoqda. Dalil sifatida, UnitedHealth Group Inc., Google, Fluor kabi yirik korporatsiyalarida (eslatma, yuqorida sanab o'tilganlarning barchasi Amerika Qo'shma Shtatlarida ta'xis etilgan va shu davlatda ro'yxatdan o'tgan kompaniyalardir) aynan hind millatiga mansub ishchilar nisbatining o'sib borayotganini keltirish mumkin. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, iqtisodiy o'sishni muntazam ijobiy ko'rsatkichlarga erishishini ta'minlash uchun menejment sohasida chuqur islohotlarga qo'l urishning ahamiyati yildan-yilga oshib bormoqda. Shu sabab, jahon tajribasidan o'tgan menejment metodlari va yondashuvlarining yurtimizda tashkil etilgan xususiy biznes idoralari va, qolaversa, ma'lum davlat organlari faoliyatiga tatbiq etish, o'z samarasini bermay qolmasligiga ishonaman.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Michael Mescon:
2. Excellence in business
3. Management: Individual and Organization effectiveness
4. Business Today
5. R. Griffin "Fundamentals of management"
6. Oxford dictionary
7. World Management Survey
8. [https://www.researchgate.net/publication/9022998\\_Practical\\_applications\\_a\\_approach\\_to\\_design\\_development\\_and\\_implementation\\_of\\_an\\_integrated\\_management\\_system](https://www.researchgate.net/publication/9022998_Practical_applications_a_approach_to_design_development_and_implementation_of_an_integrated_management_system)
9. <https://www.investopedia.com>